



Bobur QURBONOV,

dotsenti v.b. Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand, O'zbekiston

E-mail: kurbonovbobur391@gmail.com Orcid: 0000-0002-0822-6245

PhD, dotsent S.Shodiyev taqrizi asosida

TARJIMADA LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada fors va turk tillaridagi komplimentlarning tarjimada berilishi, ularning lingvomadaniy, pragmatik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Komplimentlar oddiy maqtov shakli bilangina cheklanmay, suhbatdoshga hurmat bildirish, minnatdorchilik izhor etish, muloqotdagi masofani yumshatish, xijolatni kamaytirish, ijtimoiy odobni saqlash va nutqiy aloqani davom ettirish kabi vazifalarni bajaradi. Maqolada forscha va turkcha komplimentlarning soʻzma-soʻz tarjimasi koʻp hollarda pragmatik maʼnoni toʻliq yetkaza olmasligi koʻrsatilib, ekvivalent tanlash, funksional tarjima, izohli tarjima, madaniy moslashtirish va pragmatik kompensatsiya kabi usullar asosida tahlil olib boriladi.

Kalit soʻzlar: Kompliment, tarjima, pragmatika, lingvomadaniyat, taorof, turkcha nutq odobi, ekvivalent, izohli tarjima.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация

В статье рассматриваются лингвокультурные и прагматические особенности передачи персидских и турецких комплиментов в переводе. Compliments анализируются не только как форма похвалы, но и как средство выражения уважения, благодарности, тактичности, речевого этикета и социальной близости. Показано, что буквальный перевод подобных единиц часто не передает их коммуникативной функции; поэтому переводчику необходимо использовать функциональный эквивалент, описательный перевод, культурную адаптацию и прагматическую компенсацию.

Ключевые слова: комплимент, перевод, прагматика, лингвокультура, таорф, турецкий речевой этикет, эквивалент, описательный перевод.

LINGUOCULTURAL AND PRAGMATIC FACTORS IN TRANSLATION

Annotation

The article examines the translation of Persian and Turkish compliments from linguocultural and pragmatic perspectives. Compliments are viewed not only as forms of praise, but also as speech acts expressing respect, gratitude, politeness, tact, social closeness and communicative solidarity. The article argues that literal translation often fails to convey the pragmatic force of such units. Therefore, translators should employ functional equivalents, descriptive translation, cultural adaptation and pragmatic compensation.

Key words: Compliment, translation, pragmatics, linguoculture, taorof, Turkish speech etiquette, functional equivalent, descriptive translation.

Kirish. Tarjimashunoslik zamonaviy filologiya fanining eng muhim va murakkab yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Tarjima jarayoni faqat bir tildagi soʻzlarni ikkinchi tildagi soʻzlar bilan almashtirishdan iborat emas. Har qanday tarjima asl matnda mujassam boʻlgan maʼno, uslub, hissiy ohang, kommunikativ maqsad va madaniy kodni boshqa til vositalari yordamida qayta yaratishni talab qiladi. Ayniqsa, nutqiy etiketga oid birliklar, xususan komplimentlar tarjimasida bu talab yanada kuchayadi. Chunki komplimentlar bevosita lisoniy birlik boʻlish bilan birga, muayyan xalqning odobi, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va muloqot madaniyati bilan chambarchas bogʻliqdir.

Kompliment insonning tashqi qiyofasi, xulqi, bilimi, mahorati, mehmondoʻstligi, nutqi, kiyimi, mehnati yoki ijtimoiy mavqeiga nisbatan bildiriladigan ijobiy baho shaklidir. Biroq fors va turk tillarida uchraydigan komplimentlar koʻpincha oddiy ijobiy baholashdan kengroq vazifa bajaradi. Ular minnatdorchilik, tavoze, hurmat, uzr, rozilik, xayrixohlik, duo yoki suhbatni yumshatish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilishda ularning lugʻaviy maʼnosini emas, balki nutq vaziyatidagi funksiyasini aniqlash birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Fors tilidagi komplimentlar koʻpincha taorof anʼanasi bilan bogʻliq. Taorof Eron muloqot madaniyatida hurmat,

tavoze, iltifot, taklif, rad etish yoki qabul qilishning murakkab odobiy shakllarini oʻz ichiga oladi. Turk tilidagi komplimentlar esa koʻp hollarda samimiyat, yaqinlik, duo va ijtimoiy birdamlikni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, forscha “چاکرتم” (chākaretam) bir qarashda “xizmatkoringman” degan maʼnoni bildirsa-da, real muloqotda “sizga hurmatim baland”, “rahmat”, “marhamat” kabi mazmunlarni anglatishi mumkin. Turkcha “Eline saġlık” iborasi esa soʻzma-soʻz “qoʻlingga sogʻlik” tarzida tarjima qilinadi, lekin nutq jarayonida “mehnatigiz uchun rahmat”, “juda yaxshi tayyorlabsiz” kabi pragmatik maʼnolarni beradi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.

Tarjimon faoliyatida murakkablik tugʻdiradigan omillar koʻp. Ular orasida tillarning grammatik tuzilishi, soʻz tartibi, koʻp maʼnolilik, frazeologik birliklar, realiyalar, dialektal unsurlar va madaniy tafovutlar alohida oʻrin tutadi. Komplimentlar aynan mana shu omillarning bir nechtasini oʻzida jamlagani uchun tarjima jarayonida murakkab birliklar qatoriga kiradi. Birinchidan, komplimentlarda koʻpincha koʻchma maʼno faol boʻladi. Ikkinchidan, ular muayyan ijtimoiy vaziyat bilan bogʻliq holda anglashiladi. Uchinchidan, bir tilda odatiy va tabiiy eshitiladigan iltifot boshqa tilda ortiqcha, sunʼiy yoki hatto noqulay taassurot qoldirishi mumkin.

Masalan, forscha “شرمندگی باعث” (bāʼese sharmandegi) iborasi soʻzma-soʻz “xijolat sababchisi” degan

mazmunni beradi. Biroq bu birlik ko'pincha minnatdorchilik yoki lutfga javob sifatida ishlatiladi. Uni o'zbek tiliga "xijolat qildingiz", "juda muloyimlik qildingiz", "katta rahmat" kabi vaziyatga mos shakllar bilan berish mumkin [1]. Turkcha "Allah razi olsun" iborasini esa faqat "Alloh rozi bo'lsin" deb tarjima qilish ayrim holatlarda yetarli bo'lsa-da, rasmiy yoki dunyoviy kontekstda "sizdan minnatdorman", "katta rahmat" kabi funksional muqobil tanlanishi mumkin. Demak, kompliment tarjimasida tarjimon uch asosiy savolga javob topishi lozim: birinchidan, asl birlik lug'aviy jihatdan nimani anglatadi; ikkinchidan, nutq vaziyatida qanday kommunikativ vazifani bajaradi; uchinchidan, qabul qiluvchi til va madaniyatda shu vazifani tabiiy ifodalaydigan qanday birlik mavjud?

Fors muloqot madaniyatida komplimentlar juda faol ishlatiladi. Ular suhbatdoshga hurmat ko'rsatish, ijtimoiy masofani tartibga solish, minnatdorchilik bildirish,

| Forscha birlik | So'zma-so'z ma'nosi | Pragmatik ma'nosi | O'zbekcha tarjima varianti |
|--|-------------------------|--|---|
| (mrag temad) دمت گرم | Nafasing issiq | Minnatdorchilik, maqto'v, ijobiy baho | Baraka toping; sizga gap yo'q; zo'r qildingiz |
| كرديد دمد بخ دلي (xe'yl mohabbat kardid) | Ko'p muhabbat qildingiz | Lutf va xizmat uchun minnatdorchilik | Juda mehribonlik qildingiz; katta rahmat |
| شمرنگي باعث (ba'ese sharmandegi) | Xijolat sababchisi | Ortiqcha lutfdan xijolat bo'lish, minnatdorlik | Xijolat qildingiz; juda lutf qildingiz |
| عيب ندارد (daradan bye) | Aybi yo'q | Rozilik, muammoni yumshatish | Mayli; hechqisi yo'q; muammo emas |

Jadvaldan ko'rinadiki, forscha komplimentlarning aksariyati bevosita lug'aviy mazmuni orqali emas, balki muloqotdagi vazifasi orqali tarjima qilinishi kerak. Masalan, "چاک ردم" iborasini "men sizning xizmatkorimgizman" tarzida berish rasmiy yoki zamonaviy o'zbek matnida tabiiy chiqmaydi. Bunday holatda "xizmatimgizdaman", "marhamat", "rahmat" yoki "sizni hurmat qilaman" kabi vaziyatga mos variantlardan foydalanish maqsadga muvofiq [3].

Turk tilidagi komplimentlar ham nutqiy etiketning muhim tarkibiy qismidir. Turk muloqot madaniyatida maqto'v, duo, minnatdorchilik va samimiy murojaat ko'pincha bir-biri bilan uyg'unlashadi. Ayniqsa kundalik muloqotda "Eline sag'lik", "Ag'zina sag'lik", "Gözün aydin", "Maşallah", "Allah

mehmonnavozlikni ifodalash va ijobiy munosabatni namoyon etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Fors tilida ayrim komplimentlar bevosita maqto'v bo'lsa, ayrimlari tavoze yoki o'zini past tutish orqali suhbatdoshni ulug'lashga asoslanadi. Bunday birliklarni so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha ma'noni buzadi yoki kulgili taassurot uyg'otadi [2].

Forscha komplimentlarda tana a'zolari, ayniqsa ko'z, nafas, qo'l, jon, bosh kabi so'zlar ko'p uchraydi. Biroq ular har doim ham o'zining bevosita anatomik ma'nosida kelmaydi. Masalan, "گرم دمت" (damet garm) iborasida "nafas" va "issiq" so'zlari ishlatilgan bo'lsa-da, iboraning ma'nosi "baraka toping", "zo'r qildingiz", "sizga gap yo'q" kabi ijobiy baholash va minnatdorchilikdir. "چشم" (cheshm) so'zi esa bevosita "ko'z" degan ma'noni bildiradi, ammo muloqotda "xo'p", "albatta", "bajonidil" kabi rozilik ifodasi vazifasini bajaradi.

razi olsun" kabi iboralar juda faol qo'llanadi. Ularning ayrimlari o'zbek tiliga nisbatan yaqin ko'rinsa-da, har bir iboraning kontekstdagi vazifasini aniq belgilash zarur.

Turkcha komplimentlarda "qo'l", "og'iz", "ko'z", "yurak", "jon", "sog'lik" kabi so'zlar keng uchraydi. Bu holat turkiy xalqlar muloqot madaniyatida mehnatga, so'zga, ko'rish va quvonchga ijobiy baho berish an'anasi bilan bog'liq. Masalan, "Eline sag'lik" ovqat pishirgan, biror ish bajargan yoki hunar ko'rsatgan kishiga nisbatan aytiladi. Uni so'zma-so'z "qo'lingga sog'lik" deb tarjima qilish mumkin, ammo matnning uslubiga qarab "qo'lingiz dard ko'rmasin", "mehnatigizga rahmat", "juda yaxshi tayyorlabsiz" kabi variantlar ko'proq tabiiy bo'ladi.

| Turkcha birlik | So'zma-so'z ma'nosi | Pragmatik ma'nosi | O'zbekcha tarjima varianti |
|-----------------|---------------------|---|--|
| Eline sag'lik | Qo'lingga sog'lik | Mehnat, ovqat yoki hunarga ijobiy baho | Qo'lingiz dard ko'rmasin; juda yaxshi qilibsiz |
| Ag'zina sag'lik | Og'zingga sog'lik | Yaxshi gap, to'g'ri fikr yoki chiroyli ijro uchun maqto'v | Barakalla; juda to'g'ri aytdingiz; gap yo'q |
| Gözün aydin | Ko'zing yorug' | Xushxabar, uchrashuv yoki natija bilan tabriklash | Ko'zingiz yorug' bo'lsin; tabriklayman |
| Çok naziksiniz | Juda nazokatlisiz | Lutf, odob va muloyimlikni e'tirof etish | Juda lutfkorsiz; iltifotingiz uchun rahmat |

Turkcha komplimentlarning tarjimasida yana bir muhim jihat shundaki, ular ko'pincha vaziyatga qarab turli uslubiy darajada beriladi. Masalan, "Harikasın" do'stona muloqotda "zo'rsan" deb tarjima qilinishi mumkin, lekin rasmiy matnda "siz juda yaxshi natija ko'rsatdingiz" shakli ma'qulroq bo'ladi [4]. "Maşallah" esa o'zbek tilidagi "mashallah" shakli bilan qardosh madaniyatda tanish bo'lsa-da, hamma kontekstda aynan shu ko'rinishda qoldirish shart emas. Badiiy matnda u milliy koloritni saqlash uchun "mashallah" tarzida berilishi, izohli tarjimada esa "ko'z tegmasin" ma'nosi bilan ochilishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Forscha va turkcha komplimentlar o'rtasida bir qator umumiyliklar mavjud. Har ikki tilda ham komplimentlar ijobiy baho, hurmat, minnatdorchilik va samimiyatni ifodalashga xizmat qiladi. Har

ikki madaniyatda ham tana a'zolari bilan bog'liq obrazlar ko'p uchraydi: fors tilida "چشم" (ko'z), "دم" (nafas), "جان" (jon), turk tilida "el" (qo'l), "ağız" (og'iz), "göz" (ko'z), "kalp" (yurak) kabi birliklar buning dalilidir. Biroq ularning qo'llanish doirasi va pragmatik kuchi bir xil emas.

Forscha komplimentlarda taorof unsuri kuchliroq seziladi. Suhbatdoshni ulug'lash, o'zini past tutish, lutfni rad etayotgandek ko'rinib, aslida muloqot odobini saqlash kabi holatlar ko'p uchraydi [5]. Turkcha komplimentlarda esa samimiy duo, ochiq rag'bat, ijtimoiy yaqinlik va kundalik hayotdagi iliq munosabat kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuning uchun forscha komplimentlar tarjimasida yashirin pragmatik ma'noni ochish, turkcha komplimentlar tarjimasida esa samimiylik va tabiiylikni saqlash muhimdir.

| Qiyosiy mezon | Forscha komplimentlar | Turkcha komplimentlar | Tarjimon uchun tavsiya |
|---------------------------|---|---|---|
| Madaniy asos | Taorof, tavoze, lutf, rasmiy-odobi masofa | Duo, samimiyat, yaqinlik, kundalik etiket | Madaniy vazifani aniqlab tarjima qilish |
| Ko'p uchraydigan obrazlar | Ko'z, nafas, jon, xijolat, xizmat | Qo'l, og'iz, ko'z, yurak, | Obrazni emas, vazifani tarjima |

| | | | |
|--|--|---------|--------|
| | | sog'lik | qilish |
|--|--|---------|--------|

Forscha va turkcha komplimentlarni tarjima qilishda yagona universal usul mavjud emas. Har bir birlikning tarjimasini matn turi, muloqot vaziyati, adresat, uslubiy daraja va tarjima maqsadiga qarab belgilanadi. Shunga qaramay, amaliy tarjimada quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi [6].

Birinchi strategiya - funksional ekvivalent tanlash. Bu usulda tarjimon asl birlikning so'zma-so'z ma'nosini emas, balki uning vazifasini qabul qiluvchi til vositalari bilan beradi. Masalan, forscha “گرم دمت” iborasi “nafasing issiq” emas, “baraka toping”, “zo'r qildingiz” tarzida tarjima qilinadi. Turkcha “Ag'zina saqlik” ham “og'zingga sog'lik”dan ko'ra “juda to'g'ri aytdingiz” yoki “barakalla” shaklida tabiiyroq eshitiladi.

Ikkinchi strategiya - izohli tarjima. Agar birlik qabul qiluvchi madaniyat uchun notanish bo'lsa yoki milliy koloritni saqlash zarur bo'lsa, tarjimon qisqa izohdan foydalanishi mumkin. Masalan, badiiy matnda “taorof” tushunchasini bir martalik izoh bilan berish keyingi komplimentlarni tushunishni osonlashtiradi. “Ma'sallah” iborasi ham ayrim kontekstlarda “mashallah, ya'ni ko'z tegmasin degan ma'noda aytiladigan maqto'v” tarzida izohlanishi mumkin.

Uchinchi strategiya - madaniy moslashtirish. Bunda tarjimon asl birlikni qabul qiluvchi til madaniyatida mavjud bo'lgan yaqin odobiy formula bilan almashtiradi. Masalan, forscha “نداری؟ كاری” iborasining telefon suhbatini yakunlashdagi vazifasi o'zbek tilidagi “bizga xizmat bormi?” yoki “yana biror topshiriq bormi?” birliklari orqali berilishi mumkin.

To'rtinchi strategiya - pragmatik kompensatsiya. Ba'zan bir komplimentdagi madaniy yoki hissiy ohangni aynan shu joyda berish imkonsiz bo'ladi. Bunday holatda tarjimon matnning boshqa qismida hurmat, minnatdorlik yoki

samimiylikni kuchaytiruvchi vositalardan foydalanib, umumiy pragmatik ta'sirni saqlab qolishi mumkin [7].

Beshinchi strategiya - transliteratsiya va izohni birlashtirish. Bu usul milliy kolorit muhim bo'lgan badiiy, etnografik yoki ilmiy matnlarda qo'llanadi. Masalan, “taorof”, “ma'sallah”, “afiyyet olsun” kabi birliklar transliteratsiya qilinib, birinchi qo'llanishda izohlanishi mumkin. Keyingi o'rinlarda esa ular matn ichida tabiiy qabul qilinadi [8].

Xulosa. Forscha va turkcha komplimentlar tarjimasini lingvistik, madaniy va pragmatik yondashuvlarni birgalikda talab qiladigan murakkab jarayondir. Bu birliklar ko'pincha oddiy maqto'v emas, balki hurmat, minnatdorlik, samimiyat, duo, tavoze, rozilik yoki suhbatni odob bilan davom ettirish va yakunlash vositasi sifatida ishlatiladi. Shu bois ularni tarjima qilishda lug'aviy ma'noni mexanik ko'chirish yetarli emas.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, forscha komplimentlarda taorof, xijolat, xizmat va kamtarlik unsurlari kuchli bo'lsa, turkcha komplimentlarda duo, samimiylik, rag'bat va ijtimoiy yaqinlik ko'proq namoyon bo'ladi. Har ikki tilda ham tana a'zolari bilan bog'liq obrazlar faol ishlatiladi, biroq ularning tarjimadagi vazifasi kontekst orqali belgilanadi. Tarjimon komplimentning yuzaki shaklidan tashqari, uning nutq vaziyatidagi maqsadini ham aniqlashi zarur.

Komplimentlarni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun funksional ekvivalent, izohli tarjima, madaniy moslashtirish, pragmatik kompensatsiya va transliteratsiya kabi strategiyalardan oqilona foydalanish lozim. Shuningdek, forscha va turkcha komplimentlarning maxsus ikki yoki ko'p tilli lug'atini yaratish, ularni kontekstual misollar bilan boyitish tarjimonlar, til o'rganuvchilar va lingvomadaniyat tadqiqotchilari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Мадани А.А., Мостафави Г.Х. Речевој акт комплимента в руском и персидском јазыках // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2013. № 8. С. 177-182.
2. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent, 2016.
3. Holmes J. Compliments and compliment responses in New Zealand English // Anthropological Linguistics. 1988. Vol. 28.
4. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
5. Pym A. Exploring Translation Theories. London and New York: Routledge, 2014.
6. Chorshanbiyevich, Qurbonov Bobur. "On the translation of Persian complements." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.6 (2024): 266-269.
7. Аламов, Шавкатжон. "Форсча илдизли арабча сўзларнинг хусусиятлари" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 6, 2022, pp. 472-476.
8. Alamov, Shavkatjon. "Arab tilidagi forscha iqtiboslar." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.3 (2022): 390-395.